

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA SAHNALASHTIRISH FAOLIYATINING
AHAMIYATI

Yuldasheva Mehriniso Ochiliddiyevna

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
Maktabgacha ta'lif kafedrasini o'qituvchisi*

Annotatsiya: Sahnalashtirish o'yinlarida bolalar o'yin jarayoniga kirib boradilar, voqeja va ertak qahramonlarining ichki hayotiga bevosita aloqador bo'lgan qahramonlik, jasurlik, mehribonlik, jonbozlik, jonkuyarlik kabi ijobjiy fazilatlarni o'zlarida yaqqol namoyon qiladilar. Bu jarayonda bolalarning nutq faolligi, lug'at boyligi, dunyoqarashi kengayib boradi.

Kalit so'zlar: Sahnalashtirish, lug'at boyligi, yosh xususiyatlari, dekoratsiya, milliy an'analar, badiiy asar, teatr lashtirilgan mashg'ulot.

Sahnalashtirish o'yinlari, bu bolalarning mustaqil ijodiy o'yin turi bo'lib, unda badiiy asar va hikoyalar bolalar tomonidan rollarga bo'lib ijro etiladi. Bu o'yinlar bolalarda iroda, intizom va o'z xatti-harakatlarini boshqara olish, boshqalarning harakatlari bilan hisoblashish kabi ijobjiy ma'naviy xislatlarni shakllantiradi. Sahnalashtirish o'yinlarida bolalar o'yin jarayoniga kirib boradilar, voqeja va ertak qahramonlarining ichki hayotiga bevosita aloqador bo'lgan qahramonlik, jasurlik, mehribonlik, jonbozlik, jonkuyarlik kabi ijobjiy fazilatlarni o'zlarida yaqqol namoyon qiladilar. Bu jarayonda bolalarning nutq faolligi, lug'at boyligi, dunyoqarashi kengayib boradi. Sahnalashtirish uchun badiiy asar, ertaklar tanlash katta yoshdagilardan bolalarning yosh xususiyatlari, qiziqishlari, istaklarini hisobga olishni talab etadi. Adabiy asarlarni tanlashda quyidagi talablar qo'yiladi:

1. Mazmunining g'oyaviy-ma'naviy barkamolligi.
2. Badiiy jihatdan mazmundorligi.
3. Asardagi qatnashchi va rollarning soni (qancha ko'p bo'lsa, asar shuncha ahamiyatlidir).
4. Mazmuni yaxshi bo'lishi bilan birga, unda harakat turlarining ham ko'p bo'lishi.
5. Ifodali o'qishga mos bo'lishi.
6. Mazmuni qiziqarli, hayot bilan bog'langan bo'lmog'I zarur.

Bolalar xalq ertaklarini sahnalashtirishni yaxshi ko'radilar. Masalan, «Sholg'om», «Zumrad va Qimmat», «Bo'g'irsoq» va boshqalar. Bolalar boshqa xalq ertaklarini ham turli usullarda (qo'g'irchoq, soya, soya teatri orqali) sahnalashtirishga ehtiyoj sezadilar. Badiiy asarni eslab qolishlari uchun uni qayta qo'yib berish, sahnada ko'rsatish, rasmlar namoyish etish, didaktik o'yinlardan foydalaniлади.

Sahnalashtirish o'yinlari qiziqarli o'tishi va uzoq vaqt davom etishi uchun kerakli jihozlar tayyorlanishi va unga to'g'ri rahbarlik qilinishi kerak. Kattalar o'yin rejissyori rolini amalga oshira borib, bolalarning xatti-harakatları, qobiliyatları, intilishlарини

hisobga olib boradilar. O'yinda faol ishtirok etgan bolalarni alohida rag'batlantirilib, kelgusida qaysi asarlarni sahnalashtirish kerakligini aniqlaydilar. Bolalarning ijodiy qobiliyatlarini yanada takomillashtirishda qurilish materiallari bilan o'ynaladigan o'yinlarning roli kattadir. Pedagoglardan Z.V. Lishtvan, V.G. Nechaeva o'z tadqiqotlarida qurish-yasash o'yinlarining o'ziga xos tomonlari va ahamiyatini yoritib bergenlar. Bolalar nashriyotlari badiiy asarlarni sahnalashtirish uchun xalq ertaklariga siluetlar, teatr-kitoblar, panorama-kitoblar kabi turli ko'rinishdagi ko'rgazmali qo'llanmalarni chop etmoqdalar. Sahnalashtirilgan o'yinlar. Sahnalashtirilgan o'yinlar ijodiy o'yinlar sarasiga kiradi. Unga ijodiy o'yinning quyidagi asosiy: niyatning mavjudligi, roli va mavjud harakatlar, hayol qilingan vaziyatning va boshqa elementlarning uyg'unligi, bolalarning mustaqillik va o'z-o'zini uyushtira olish jihatlari xos. Sahnalashtirilgan o'yin badiiy asar asosida ko'rildi: o'yin syujeti, rollar, qahramonlarning xatti-harakatlari, ularning nutqi asar matniga ko'ra belgilanadi. Sahnalashtirilgan o'yin bolalarning eshitgan asar yoki ertagidan olgan tasavvurlarini mustaqil ifodalash hamda mashq qilish imkonini beradi. Bu o'yinlar bolalarda iroda, intizom, o'z harakatlarini boshqalarning harakatiga muvofiq amalga oshirish kabi sifatlarni tarbiyalashda samarali vosita hisoblanadi. Sahnalashtirish bolalarni qayta so'zlashga o'rgatish usullaridan biridir. Ba'zi bir bolalarda badiiy asardan olingan parchani qayta so'zlab berishga xohish ham qiziqish ham bo'lmaydi, ammo unga o'yin usuli kiritilishi bilan bola asardagi rolga kirib, o'sha asar mazmunini juda yaxshi aytib berishga harakat qiladi. Bunday o'yinda bola o'zini o'sha asardagi qaxramon o'rnida his etib, uning sezgi, kechinmalari dunyosiga chuqurroq kirib boradi. Badiiy asarlarni qahramonlar tilida so'zlab berish boladagi hayolni rivojlantirishga yordam beradi 7 va asar qahramonida mavjud bo'lgan ijobiy sifatlarni egallashga intiladi. Sahnalashtirilgan o'yinda badiiy asarning g'oyaviy mazmuni bolalar tomonidan chuqurroq anglab olinadi. Sahnalashtirilgan o'yinlar bolalar biror ertak yoki hikoya syujeti asosida ma'lum bir rolni bajarishiga, o'yin jarayonidagi personajlarning aytadigan so'zlarining yod olinishiga asoslangan bo'lib, bolalarda iroda, intizom, o'z harakatlarini boshqalarning harakatiga muvofiq amalga oshirish kabi sifatlarni tarbiyalashda samarali vosita sanaladi.

Sahnalashtirilgan o'yinlarni tashkil etish quyidagi bosqichlarni o'z ichiga qamrab oladi:

I bosqich. Sahnalashtirish uchun badiiy asarni tanlash. Badiiy asarni tanlashda quyidagi talablarga rioya qilish kerak:

1) ertak yoki hikoyada qatnashuvchilar soni ko'p bo'lishi kerak;

2) asarning nafaqat mazmuni, balki unda harakatlarning ham turfa xil bo'lishiga e'tibor qaratish lozim;

3) asar ifodali o'qishga mos bo'lishi kerak;

4) asar mazmuni qiziqarli va emotsional bo'lishi zarur;

5) asar bolalarning yoshiga mos kelishi lozim.

II bosqich. Sahnalashtirish uchun tanlangan ertak yoki hikoyaning mazmunini o'qib berish.

III bosqich. Asarni bolalar tomonidan eslab qolinishiga erishish: qayta o'qib berish, har bir bolaning aytadigan gaplari ustida individual ish olib borish, rasmlar namoyish etish.

IV bosqich. O'yin qiziqarli o'tishi va uzoq davom etishi uchun o'yinga kerakli materiallar, kiyimlar tayyorlash hamda rahbarlikni to'g'ri amalga oshirish.

Turli yosh guruhlarda sahnalashtirishning vazifalari

Sahnalashtirilgan o'yinlar bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda oddiydan murakkabga qarab yo'naltirib borilishi maqsadga muvofiq. Masalan, o'rta guruh uchun asosan harakatni aks ettiruvchi asarlar tanlansa, katta guruh bolalari uchun esa asar qahramonlarining ancha murakkab munosabatlari, ularning kechinmalari, qayg'ulari aks ettirilgan asarlar tanlanadi. ertak va hikoyalarni bolalar ko'pincha o'zlarining ijodiy rolli o'yinlarida sahnalashtiradilar, bu o'yinlarda tulki, sichqon, xo'roz, quyon kabi personajlarni o'yinlarda aks ettiradilar. Yozuvchilarning badiiy asarlarini ham bolalar sevib sahnalashtiradilar. Bolalar bilan suhbatlasha turib, tarbiyachi hikoya yoki ertak qahramonlarining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashga harakat qiladi. Har xil she'r, ertak qahramonlarining o'ziga xos xususiyatlari mana shunday o'rganiladi. Guruhda shu yoshli bolalarga xos bo'lgan ertaklar, hikoyalar ularga tanish bo'lib qolgandan keyingina sahnalashtirish boshlanadi. «Sholg'om», «Bo'g'irsoq» kabi ertaklar sahnalashtiriladi.

Tayyorlov guruhida bu ish davom ettiriladi. Sahnalashtirish uchun ertaklarga olinmasdan, badiiy asarlar, xususan, she'rlar ham olinadi. Masalan, tarbiyachi o'rta guruh uchun asosan harakatni aks ettiruvchi asarlar tanlaydi, katta guruh bolalari uchun esa asar qahramonlarining ancha murakkab munosabatlari, ularning kechinmalari, qayg'ulari aks ettirilgan asarlar tanlanadi. Har bir insonning bolaligi rolli o'yinlar asosida o'tadi, u bolada kattalarning hayotiy qonun-qoidalarni anglashni o'rgatadi. Har bir bola o'zi bilganicha o'ynaydi, lekin bu o'yinlar asosan kattalar, sevimli qahramonlardan o'rganib yoki ularga taqlid qilgan holda amalga oshiriladi. Bolalar o'yinlariga improvizatsiya qilingan teatrlashtirilgan tomosha sifatida qarash mumkin. Bolaga o'zini rejissor, aktyor, musiqachi, dekorator holida ko'rish imkonini beriladi. Dekoratsiya va kostumlarni tayyorlash bolada ijodiy va texnik faoliyatni rivojlanishiga turtki bo'ladi. Tomoshani tayyorlash jarayonida ular chizish, yasash, tikish ko'nikmalarini rivojlantirish bilan birga, oldilarida amalga oshirishlari lozim bo'lgan vazifalarga nisbatan istak, hoxish tuyg'ulari yanada rivojlanadi va ular bundan katta zavq oladilar. Maktabgacha ta'lim muassasalarida teatrlashtirilgan faoliyatning barcha yo'nalishlariga katta e'tibor berish lozim va shart, chunki ular, - jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lish modelini yaratishni; - milliy va ma'naviy qadriyatlarni singdirib borgan holda bolaning madaniyatini oshirishni; - bolalar adabiyoti, musiqa, tasviriysan'at, o'zini tutish odobi, milliy an'analar va qadriyatlar bilan yaqindan tanishtirish va bu boradagi qiziqishini muntazam oshirib borishni; - to'g'rifikrlash,

jaxshilik va yomonlik haqidagi tushunchalarni o'yinlar orqali bolalar ongiga singdirib borishga yordam beradi. Shuningdek, teatrlashtirilgan faoliyat bolalarning ichki kechinmalari, munosabatlari, emotsional faoliyatining rivojlanishiga ya'ni asar qahramonlariga munosabat bildirish, ularning holatiga kirishga harakat qilish kabi holatlar bilan birga boladagi ijodiy faollikni o'yin, fantaziya, to'qib chiqarish orqali kengaytiradilar. Teatrlashtirilgan faoliyat bilan bolalar nutqini rivojlantirish uzviy bog'liq bo'lib, qahramonlarning so'zlari, bola nutqi bilan uyg'unlashib uning so'z boyligini orttiradi, nutqining tovush madaniyat mukammalashadi. Teatrlashtirilgan mashg'ulotlar o'z ichiga ertaklardan lavhalar qo'yish, rasmga qarab rolli suhbatlar tuzish, hayotiy mavzularga oid mustaqil improvizatsiya (o'xshatish) qilish (kulguli voqealar, qiziq hodisalar va hokazo); qo'g'irchoq tomoshalarini ko'rish va uni muhokama qilish, 8 dramatizatsiyalashgan o'yinlar, rolni ijro etish ifodaliligin rivojlantiruvchi mashqlar (verbal va noverbal); bolalarni xissiy rivojlantiruvchi mashqlarni qamrab oladi. Teatrlashtirilgan faoliyatni to'g'ri yo'lga qo'yish, jamoani to'g'ri yo'naltirishda tarbiyachi katta rol o'ynaydi. Tarbiyachi nafaqat ifodali o'qishi yoki aytib berishi, balki ko'rishi, eshitishi, obrazga kirishi, ya'ni aktyorlik va rejissorlik mahoratlariga ham ega bo'lishi zarur. Aynan shu holat bolalarda teatrlashtirilgan faoliyatga qiziqishni uyg'otishi, bolalarning ijodiy qobiliyatlarini ijobiyl tomonga o'zgarishiga yo'l ochadi. Tarbiyachi o'zining aktyorlik faolligi bilan tortinchoq bolalarni faqatgina tomoshabinga aylantirib qo'ymasligi, har bir bolani diqqat bilan kuzatishi lozim. Tarbiyachi bolalarni muntazam ravishda qo'llab quvvatlashi, ularning xato qilish va sahnaga chiqishda qo'rqish, «artist» va «tomoshabin»ga bo'linib qolishlariga yo'l qo'ymaslik lozim. Quyidagi vazifalar teatrlashtirilgan faoliyatni shakllantirish bo'yicha amalga oshiriladigan mashg'ulotlar majmuasi davomida hal etiladi: - tarbiyalanuvchining ijodiy qobiliyat va ijodiy o'z o'ziga ishonish tuyg'ularini shakllantirish; - bolalarda ijodiy faoliyatning barcha jabhalariga qiziqish uyg'otish; - improvizatsiya (o'xshatish) qilish ko'nikmalarini egallah; - nutq faoliyatining barcha shakl, funksiya va komponentlarini rivojlantirish; - bilish ko'nikmalarini mukammallashtirish. Teatrlashtirilgan o'yin teatrlashtirilgan mashg'ulotning asosi hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1."Ilk qadam "davlat dasturi.Toshkent.2018y
- 2.Rahima Movlonova va boshqalar "O'quv ustaxonasida amaliymashg'ulot" Toshkent-"Ilm Ziyo"-2010
- 3.Aziza Murodova. Gulnoza Murodova "O'yinchoqlar yasash san'ati"
- 4.Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti Toshkent-2008
- 5.D.Q.Asqarova "bolalarni sahnalashtirish va ijodiy faoliyatga o'rgatish" (Metodik qo'llanma) Namangan 2018 y